O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI NAMANGAN VILOYATI POP TUMANI HOKIMINING

Q A R O R I

2022 - yil 2 - iyun 373-6-84-Q/22 Pop tuman hokimligi

Pop tumani hududida yo`l transport hodisalarini oldini olish maqsadida qo`shimcha yo`l belgilarini o`rnatish to`g`risida

“Mahalliy davlat hokimiyati to`g`risida”gi O`zbekiston Respublikasi Qonunining 6, 25-moddalari, “Yo`l harakati xavfsizligi to`g`risida”gi Qonunining 7-moddasi, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022 yil 12 apreldagi 172-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Yo`l harakati Qoidalari” talablariga asosan hamda Namangan viloyati hokimining 2022 yil 18 maydagi viloyat, tuman sektorlari va boshqa tashkilot, korxona, muassasa rahbarlari ishtirokida o`tkazilgan yig`ilish bayoni tegishli bandi ijrosini yuzasidan Pop tumani hududida yo`l harakati xavfsizligini ta’minlash bo`yicha profilaktik-ogohlantirish va og`ir oqibatli yo`l-transport hodisalarining oldini olish borasidagi ishlar samaradorligini oshirish yuzasidan tegishli tashkilotlar bilan hamkorlikda amalga oshirilishi lozim bo`lgan keng ko`lamli tashkiliy va amaliy chora-tadbirlar rejasini ijrosini ta’minlash maqsadida,

Q A R O R Q I L A M A N:

1. Pop shahar markazidagi umumfoydalanuvdagi avtomobil yo`llari va markaziy ko`chalarida fuqarolar va transport vositalarini harakati xavfsizligini va tirbandligini, yo`l transporti hodisalarini oldini olish borasida yo`l belgilarini o`rnatish ishlari samaradorligini oshirish yuzasidan tegishli tashkilotlar bilan hamkorlikda amalga oshirilishi lozim bo`lgan keng ko'lamli tashkiliy va amaliy chora-tadbirlar rejasi hamda Namangan viloyati hokimining 2022 yil 18 maydagi viloyat hamda tuman sektor va boshqa tashkilot, korxona, muassasa raxbarlari

ishtirokida o`tkazilgan yig`ilish bayoni asos uchun qabul qilinsin.

2. Pop shahar markazidagi umumfoydalanuvdagi avtomobil yo`llari va markaziy ko`chalarida fuqarolar va transport vositalarini harakati xavfsizligini va tirbandligini, yo`l transporti hodisalarini oldini olish maqsadida 1-ilovaga muvofiq yo'l belgilari o`rnatilsin.

3.Tuman IIB boshlig`i M.Nu’monov va tuman yo`llardan foydalanish unitar korxonasi direktori J.Gopirovga:

Pop shahar markazida umumfoydalanuvidagi avtomobil yo`llari va markaziy ko`chalarida fuqarolar va transport vositalarini harakati xavfsizligini ta’minlash, yo`l transporti hodisalarini oldini olish maqsadida yo`l belgilarini o`rnatish va doimiy nazorat qilish vazifasi yuklatilsin.

4.Mazkur qaror “Pop tongi” gazetasida rasmiy e’lon qilinsin va hokimlikning rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

5.Mazkur qaror rasmiy e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

6.Mazkur qarordan norozi shaxslar yuqori turuvchi organga yoki sudga shikoyat kilish mumkin.

7.Ushbu qarorning bajarilishini nazorat qilishni o`z zimmamda qoldiraman.

Tuman hokimi **Султанов А.М.**

Pop tuman hokimining
2022 yil 2 iyundagi
373-6-84-Q/22-son qaroriga
1-ilova

Tuman hududida umumfoydalanuvidagi avtomobil yo`llari va markaziy ko`chalarida fuqarolar va transport vositalarini harakati xavfsizligini ta’minlash, yo`l transporti hodisalarini oldini olish maqsadida o`rnatilishi lozim bo`lgan yo`l belgilari va manzili

RO`YXATI

№	Yo`l belgisi o`rnatilgan yo`l nomi	Yo`l belgisini nomi
1	4R-121 “Kosonsoy-st.Chust-st.Pop-Navbaxor” avtomobil yo`lining 65-67 km oralig`ida yo`l belgisi o`rnatish	3.28 “To`xtab turish ta’qiqlanadi” yo`l belgisi
2	4R-121 “Kosonsoy-st.Chust-st.Pop-Navbaxor” avtomobil yo`lining 68-70 km oralig`ida yo`l belgisi o`rnatish	3.28 “To`xtab turish ta’qiqlanadi” yo`l belgisi
3	4R-121 “Kosonsoy-st.Chust-st.Pop-Navbaxor” avtomobil yo`lining 68-70 km oralig`ida yo`l belgisi o`rnatish	5.5 “Bir tomonlama xaraktlanish yo`li” yo`l belgisi
4	4R-121 “Kosonsoy-st.Chust-st.Pop-Navbaxor” avtomobil yo`lining 68-70 km oralig`ida yo`l belgisi o`rnatish	5.7.1 “Bir tomonlama xarakatli yo`lga chiqish” yo`l belgisi
5	4R-121 “Kosonsoy-st.Chust-st.Pop-Navbaxor” avtomobil yo`lining 68-70 km oralig`ida yo`l belgisi o`rnatish	5.7.2 “Bir tomonlama xarakatli yo`lga chiqish” yo`l belgisi
6	4R-121 “Kosonsoy-st.Chust-st.Pop-Navbaxor” avtomobil yo`lining70 kmda svetofor o`rnatish	1.8 “Svetofor tartibga soladi” yo`l belgisi
7	4R-215“Pungon-Pop” avtomobil yo`lining 27-30 km oralig`ida yo`l belgisi o`rnatish	3.28 “To`xtab turish ta’qiqlanadi” yo`l belgisi
8	4K-481 “Xo`jaobod q-Kelachi q-Uyg`ur q” avtomobil yo`lining 5-6 km oralig`ida yo`l belgisi o`rnatish	3.28 “To`xtab turish ta’qiqlanadi” yo`l belgisi